

O'QUV JARAYONIDA XALQ PEDAGOGIKASINING TA'LIM-TARBIYAGA OID ASOSIY G'OYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Xushnazarova Ma'mura Nodirovna -- Qo'qon davlat pedagogika instituti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quv jarayonida xalq pedagogikasining ta'lim-tarbiyaga oid asosiy g'oyalaridan foydalanishning pedagogik jihatlari, talabalarni ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlashda o'quv jarayonida, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda qo'llaniladigan ta'lim metodlari aksiologik munosabatlarni rivojlantirish bosqichlarida muhim ahamiyatga egaligi to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: umuminsoniy qadriyatlar, aksiologik munosabat, qadriyatlar tizimi, faoliyat motivlari, aksiologik mezon, ta'limni insonparvarlashtirish, kasbiy kompetentlik, demokratik tamoyillar, diniy bag'rikenglik, tolerantlik.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РЕАЛИЗАЦИИ СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ В РАМКАХ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ И ОБЩЕСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Хушназарова Маъмура Нодировна - Кокандский государственный педагогический институт, доктор философии в педагогических науках (PhD), доцент

Аннотация: В данной статье считается важным уточнить аксиологические критерии и показатели развития профессиональной компетентности на основе профессиональной системы ценностей и мотивации студентов высших учебных заведений, усовершенствовать организационную структуру и механизмы развития системы ценностей, а также по развитию творческих образовательных технологий.

Ключевые слова: ценностная установка, система ценностей, мотивы деятельности, аксиологический критерий, гуманизация образования, профессиональная компетентность.

THE MAIN DIRECTIONS OF IMPLEMENTATION OF SOCIAL PEDAGOGICAL PRACTICE WITHIN THE FRAMEWORK OF PROFESSIONAL AND SOCIAL ACTIVITIES

**Khushnazarova Mamura Nodirovna - Kokand state pedagogical institute, PhD in pedagogical sciences, associate professor
ph.: +998905561700 e-mail: xushnazarovamamura@kspi.uz**

Annotation: In this article, it is considered important to clarify the axiological criteria and indicators of professional competence development based on the professional value system and motivations of students of higher educational institutions, to improve the organizational structure and mechanisms of the development of the value system, and to develop creative educational technologies. held.

Key words: axiological attitude, value system, activity motives, axiological criterion, humanization of education, professional competence.

Ijtimoiy pedagogik amaliyotda xalqaro me'yorlar va umume'tirof etilgan

tushunchalarni bilish va amaliyotda qo'llash umuminsoniy qadriyatlarning rivojlanishiga asos bo'ladi. Bular: demokratik tamoyillar, diniy bag'rikenglik, tolerantlik, turli madaniyatlarga hurmat va boshq. YUNESKO Bosh Assambleyasining 1995 yil 16 noyabrda bo'lib o'tgan XXVIII sessiyasida "Bag'rikenglik bo'lmasa, tinchlik bo'lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo'lmaydi"¹ shiori ostida "Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi" qabul qilingan edi. 1997 yili BMTning Bosh Assambleyasida esa mazkur Deklaratsiya qabul qilingan kun – "Xalqaro diniy bag'rikenglik kuni" deb e'lon qilingan. Ijtimoiy pedagogik amaliyot hozirgi globallashuv jarayonida diniy bag'rikenglik, dinlararo totuvlik, o'zaro hamkorlik masalasi rivojlangan va rivojlanib borayotgan mamlakatlarning tinchligi, taraqqiyoti uchun yo'nalgan tamoyillarni tadbiq etadi. Misol tariqasida, bag'rikenglikka zid tushuncha "mutaassiblik"²ni keltirish mumkin. Umumiy ma'noda "mutaassiblik" bu bir g'oyaning to'g'riligiga qattiq ishonish va undan o'zgalarni keskin rad etishni anglatadi. Ijtimoiy pedagogik amaliyot mazmunining to'g'ri va o'z vaqtida tashkil etilmasligi natijasida fenomenning xavfli jihatlari namoyon bo'ladi va borgan sari kuchayib ksenofobiya, ekstremizm va xatto terrorizmga aylanadi.²

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlashda o'quv jarayonida, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda qo'llaniladigan ta'lim metodlari aksiologik munosabatlarni rivojlantirish bosqishlarida muhim ahamiyatga ega. Bulardan ba'zi birlarini keltirib o'tamiz.

Suhbat – axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi ta'lim-tarbiya metodlaridan biri bo'lib, unda boshlovchi va tinglovchilarning bir xil tarzda ishtiroki talab etiladi. Suhbat jarayonida ikki tomonlama muloqot kechib, bu jarayonda tinglovchilar boshlovchi savollariga javob ham berishadi, ham o'zlari unga o'z savollari bilan murojaat etishadi, o'z

¹ Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. Betti Readon. Bag'rikenglik: tinchlik sari olg'a qadam. YuNESKO, 2005.

² Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik: (yuz savolga – yuz javob) / Mas'ul muharrir O.Yusupov. –T.: Toshkent Islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.

fikrlarini bildirishadi. Ilmiy-ommabop ma'ruzalarning ilmiy bilim shakli sifatidagi eng asosiy maqsadi mavjud ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy muammolar mohiyatini ochib berish, ularni hal etish bo'yicha faoliyatning ehtimoliy usullarini ko'rsatib berishdan iboratdir. Shu sababli ilmiy-ommabop ma'ruzalar etarlicha tayyorgarlik va bilimga ega auditoriya bo'lishini nazarda tutadi.

Bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlashda aynan ma'naviy meros – xalq pedagogikasining ta'lim-tarbiyaga oid asosiy g'oyalari bilan tanishtirish orqali ularda pedagogik faoliyatda samarali foydalanishga zamin tayyorlaydigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga asosiy e'tiborni qaratish zarurdir.³

Ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlashda ijtimoiy gumanitar fanlarning ahamiyati katta bo'lib, bu fanlarni o'rganish talabalarga fanning mohiyati, adabiyotlardan foydalanish yo'llarini o'rgatmasa, bayonni ilmiy, izchil, aniq, tushunarli va ishonarli, nazariya va amaliyot birligiga qurmasa bilim formal o'rganiladi. O'quv materialarini tushuntira olmaslik – tushunmaslikka, qo'llab ko'rsatmaslik – qo'llay olmaslikka, qiziqitirmaslik – fanga qiziqishning yo'qolishiga olib keladi. Ijtimoiy hayotda hamma voqea-hodisalar bir-biriga bog'liqligi kabi ta'limda ham hamma narsa bir-biriga bog'lanishi kerak. Uzviylik va uzluksizlik darsning tuzilishida ham namoyon bo'lishi kerak. Ya'ni mavzuni tushuntirish, takrorlash, mustahkamlash, o'rganilgan materiallarni tekshirib borish talab qilinadi. Bu orqali talabalar mustaqil, tizimli ishlash malakalariga ega bo'ladilar.

Ijtimoiy pedagogik amaliyot sotsiologiyadagi avlodlar almashinuvi nazariyasi bilan uzviylikda amalga oshiriladi. Avlodlar almashinuvi nazariyasi hozirgi avlodlar xulqi, faoliyati maqsadlarini belgilashni, hayotiy ustuvorliklarini belgilash kabilarni o'zida ifoda etadi.⁴ Hozirgi kunda o'quvchi-yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayoni murakkablashdi va ularning ijtimoiy balog'atga etish omillari o'zgargan.

³ Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2015. – 5-6 b. – B. 160.

⁴ Christian E.W. Kremser. The Misery of Historicism Today: The Generational Theory of William Strauss and Neil Howe. Brill publishing house, 2019. – 179-205 p.

Talabalarning ijtimoiy etuklikka erishuvi bir qator mustaqil omillar (oila, maktab, jamoa, ommaviy axborot vositalari, yoshlar tashkilotlari va boshqa guruhlar) ta'siri ostida amalga oshadi. Mazkur ijtimoiy mexanizmlarning har biri yoshlar tarbiyasida turli xil vazifalarni bajaradi va o'zgacha ta'sir etadi. Ijtimoiy etuklik ob'ektiv reallikni anglash, o'zining asosiy ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini ifoda etish hamda amaliyotda tatbiq etishning umumiylikni bildiradi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlashda biografik ta'limni joriy etish uchun bakalavr bosqichi talabalari 4 yil davomida o'zlashtirishi lozim bo'lgan faoliyatga doir barcha bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalar, faoliyatga doir barcha mavzular, faoliyatning ijtimoiy-huquqiy jihatlari, faoliyat uchun zaruriy shaxsiy xususiyatlar batafsil bayon etiladi va talabalar uchun uslubiy qo'llanma sifatida foydalanish uchun taqdim etiladi. Talabalar muntazam ravishda o'zlarining individual o'zlashtirish traektoriyasini belgilab boradi. O'quv yilining yakunida mas'ul oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi tomonidan refleksiv suhbat tashkil etiladi. Suhbatda ijtimoiy pedagogik amaliyot asosidagi biografik ta'limning samaradorligi baholanadi va yuqori samaradorlikka erishish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Shu asosda talabalar mustaqil ravishda bo'lajak faoliyatga tayyorgarlik ko'rib boradi. Mustaqil ravishda maqsadli o'qish, o'zini rivojlantirish uchun shaxsiy rejalar tuzishda ham biografik ta'lim samarali hisoblanadi. Biografik ta'lim talabalarga metodik jihatdan ham samarali bo'lib, bu orqali ular kasbiy faoliyatga, ma'lum lavozimlarga tayyorlanish bosqichlarida ham keng qo'llashi mumkin bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasasi talabalarini ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlash, ularda komil shaxs va mutaxassis xususiyatlarini shakllantirish hamda mazkur faoliyatga aksiologik munosabatni rivojlantirishda quyidagi shart-sharoitlar zarur hisoblanadi:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonining talabalarga yo'naltirilganligi sifatida yangicha

qarash. Bu quyidagilarni bildiradi: talaba pedagogik jarayonning ob'ekti emas, sub'ekti sifatida aks etadi, ular maqsadlarga erishish vositasi emas, ta'lim tizimining maqsadi – barcha talaba qobiliyatli, iqtidorli deb qarash, ularning muhim sifatлари sifatida yuksak axloqiy qadriyatlar aks etadi.

2. Ta'lim-tarbiya jarayonini insonravarlashtirish, talabalar ishtiroki va faolligini qo'llab-quvvatlash. Talabalarda pedagogik, ijtimoiy pedagogik amaliyotga xohish, mustahkam istak, mas'uliyat, kasbiy burch va axloq me'yorlarini singdirish. Talabalarga yuksak ishonch, hamkorlik va muloqot mahorati bilan yondashish muhim bo'lib, ularni to'g'ridan to'g'ri majburlash, qo'rqitish va tinimsiz salbiy oqibatlarni eslatish orqali o'qish-o'rganish, ma'naviy-ma'rifiy, jamoatchilik tadbirlarida ishtirokini ta'minlashdan voz kechish zarur. Shuningdek, talabalarni ijobiy rag'batlantirish, pedagog sifatida shakllanayotgan kasbiy mahorati oraliq natijalarini e'tirof etish muhim hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil fikr yurita oladigan, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun zarur bo'ladigan rivojlanish istiqbollari aniq belgilaydigan mutaxassislar tayyorlash masalasi strategik vazifalarning asosiy yo'nalishi sifatida tavsiflanadi. Bu o'z navbatida bo'lajak o'qituvshilarni tayyorlashni modernizatsiyalash va uning innovatsion pedagogik asoslarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish, kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan kompetentsiyalar, shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirish va shu orqali mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash strategik vazifalar mazmunini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- 1 Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. Betti Readon. Bag'rikenglik: tinchlik sari olg'a qadam. YuNESKO, 2005
2. Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik: (yuz savolga – yuz javob) / Mas'ul muharrir O.Yusupov. –T.: Toshkent Islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.
3. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2015. – 5-6 b. – B. 160.

4. Christian E.W. Kremser. The Misery of Historicism Today: The Generational Theory of William Strauss and Neil Howe. Brill publishing house, 2019. – 179-205 p.
5. M.N.Xushnazarova. Volontyorlik faoliyatining ijtimoiy –pedagogik muammolari. Science problems .UZ.Ijtimoiy- gumanitar fanlarning dolzarb muammolari.№ 12 /2 (3)- 2023 . 311-315